

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

XANNAROV KOMILJON KARIMOVICH

**DAVLAT BYUDJETIDAN AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNI
RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract for Doctor of Philosophy (PhD) in
economics**

Xannarov Komiljon Karimovich

Davlat byudjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashni rivojlantirish yo'nalishlari...3

Ханнаров Комилжон Каримович

Направления развития обеспечения населения жильем за средства
государственного бюджета.27

Xannarov Komiljon Karimovich

Directions for developing housing from the public budget.53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works58

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

XANNAROV KOMILJON KARIMOVICH

**DAVLAT BYUDJETIDAN AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNI
RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.4.PhD/Iqt4735 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Tashkent International Universityda bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashveb-sahifasi (www.tiu.uz) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich**
iqtisodiyot fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Shernayev Akbar Aqmirzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Uchi tashkilot: **G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali**

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «24» 06 kuni soat 12.00 da majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55;
faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «06» 06 kuni tarqatildi.
(2025 yil «26» 04 da 19 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

A.R. Norov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Birlashgan millatlar tashkilotining aholi yashash punktlari (The United Nations Human Settlements Programme (UN-Habitat)) bo'yicha dasturi aholining uy-joy bilan ta'minlanishiga qaratilgan islohotlarni tahlil etib boradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra¹, 2030 yilga borib dunyo aholisining 40 foizi – 3 mlrd. insonlarda talablarga muvofiq bo'lgan uy-joyga ehtiyoji bo'ladi ekan. Bu esa, kuniga 96000 yangi azon uy-joylarni qurish zaruratini ko'rsatib beradi. Shuningdek, taxminan 100 mln. aholi uysiz, har to'rtinchi inson sifatsiz turar-joyda istiqomat qilishiga to'g'ri kelishini ta'kidlab o'tiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra², iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda insonlar o'z vaqtining 70 foizdan ortiq qismini o'z uylarida o'tkazishar ekan. Shuningdek, quyidagi hollarda insonlar o'z uylarida yanada ko'proq vaqt o'tkazishlarini ko'rsatib o'tadi. (1) ishsizlik yuqori bo'lgan va uyda ishlash tamoyillari rivojlangan holatlarda, (2) bolalar, qariyalar va imkoniyati cheklangan insonlar va (3) shuningdek, bolalar uylarda doimiy qolishlari mumkinligini keltirib o'tadi. Shu boisdan, aholini uy-joy bilan ta'minlash orqali turmush farovonligini global va mamlakat nuqtai nazaridan aniqlash va baholash alohida xususiyat bilan gavdalanishi tadqiqotlarni amalga oshirishga bo'lgan zaruratni ko'rsatib beradi.

Jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida barqaror daromadga ega bo'lgan aholi qatlamiga ijtimoiy infratuzilma omili orqali uy-joylarni taklif qilish, byudjet mablag'lari hisobidan ipoteka kreditini taqdim etishda oila a'zolarining soni, aholini uy-joy bilan ta'minlashda monetar omillarni tahlil qilish, mol-mulk solig'i bo'yicha siyosatni aholi daromadlariga ta'sirini muvofiqlashtirish, davlat byudjetidan subsidiyalar ajratishda aholini jinlar kesimida tizimlashtirish, aholini uy-joy bilan ta'minlash mexanizmida davlat maqsadli jamg'armasini tashkil etish va Eskrou hisobraqam tizimini joriy etish kabi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etmoqda. Shuningdek, demografik jihatdan o'sish tendensiyalarining kengayib borishi uy-joyga egalik qilishga nisbatan yalpi talabning hajmini oshishiga olib kelishi, aholini uy-joy bilan ta'minlashda turar joylarning sifati, ularning sig'imkorligi, iqlim o'zgarishlariga salbiy ta'sirini oldini olish, ijara uchun ham to'lovlarni joriy etish kabi tendensiyalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat byudjetining roli oshib bormoqda. Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat byudjetining roli ijtimoiy siyosat va ipoteka siyosati jihatidan tizimlashtirish, aholini uy-joy bilan ta'minlashda turar joylarning sifati, ularning sig'imkorligi, iqlim o'zgarishlariga salbiy ta'sirini oldini olish, ijara uchun ham to'lovlarni joriy etish, shuningdek ijara to'lovlarini amalga oshiruvchilarning coliq imtiyozlaridan moliyaviy manfaatdorligini oshirish va ipoteka foiz stavkalarini pasaytirishda davlat mablag'laridan foydalanish va ushbu faoliyatga doir jamg'armaga aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish amaliyotini rivojlantirish kabilar muhim

¹Housing. UN-Habitat. <https://unhabitat.org/topic/housing>

² WHO Housing and health guidelines. Geneva: World Health Organization; 2018. LicenceCC BY-NC-SA 3.0 IGO.

hisoblanadi. Bu esa, byudjet xarajatlaridan birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini uy-joy bilan ta'minlash orqali aholi turmush farovonligini oshirish uchun davlat xarajatlarida ustuvorlikni belgilashni ishlab chiqishni tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Ushbu tadqiqot taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi "2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-son farmoni, 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 4-avgustdagi PQ-4797-son «Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagi 182-son "Uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbudissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» deb nomlangan strategik mavzularining ustuvorligiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan aholini uy-joy bilan ta'minlashda aholi daromadlar taqsimoti, ijtimoiy himoyaning roli va unda byudjet xarajatlarini samarali boshqarish nisbatan qator ilmiy yondashuvlarni kuzatish mumkin. Jumladan, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda Chayetskiy A., Ellen I. G., Horn, K. M., Joo T.T., Jylhä K., Kärkkäinen S. L., Lavikka R., Lens M.C., Lin-Heng L., Mills E.S., Phang, S.Y.³tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish o'ziga xos jihatlari yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ularda turli yo'nalishlari va ularning o'zaro bog'liqligi, o'ziga xos jihatlari tahlil

³Chayetskiy, A., Evdokimenko, A., & Kogan, A. (2020, November). Modeling the Escrow Financing Influence on the Efficiency of Development Project. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 953, No. 1, p. 012045). IOP Publishing.; Ellen, I. G. (2020). What do we know about housing choice vouchers? *Regional Science and Urban Economics*, 80, 103380.; Horn, K. M., Ellen, I. G., & Schwartz, A. E. (2014). Do Housing Choice Voucher holders live near good schools? *Journal of Housing Economics*, 23, 28-40.; Joo, T. T. K., & Wong, T. C. (2008). Public housing in Singapore: A sustainable housing form and development. In *Spatial planning for a sustainable Singapore* (pp. 135-150). Dordrecht: Springer Netherlands.; Jylhä, K., Jokisalo, J., Ruosteenoja, K., Pilli-Sihvola, K., Kalamees, T., Seitola, T., ... & Drebs, A. (2015). Energy demand for the heating and cooling of residential houses in Finland in a changing climate. *Energy and Buildings*, 99, 104-116.; Kärkkäinen, S. L. (2018). Housing Policy and Homelessness in Finland. In *Coping with Homelessness* (pp. 368-396). Routledge.; Lavikka, R., & Paiho, S. (2023). Motivations and market solutions for flexible housing in Finland. *Journal of Housing and the Built Environment*, 38(3), 1789-1818.; Lens, M. C., Ellen, I. G., & O'Regan, K. (2011). Do vouchers help low-income households live in safer neighborhoods? Evidence on the housing choice voucher program. *Cityscape*, 135-159.; Lin-Heng, L. (2020). Public housing in Singapore: a success story in sustainable development. In *The Impact of Environmental Law* (pp. 128-153). Edward Elgar Publishing.; Mills, E. S. (1994). The functioning and regulation of escrow accounts. *Housing Policy Debate*, 5(2), 203-218.; Phang, Sock Yong and Helble, Matthias, *Housing Policies in Singapore* (March 23, 2016). ADBI Working Paper 559, Available at SSRN: <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2753487>

etilgan. Abdullaeva Sh.E., Alieva G.A., Asadullina N.R., Normurodov S.N., Baratov S.N., Bahtiyorov B.B., Davletov I.X., Zokirov S., Karimqulov J., Qurbonalieva H.I., Mirzamahmudova M.O., Musakov I.Yu., Toymuxamedov I., Usmanov M.A., Xaitov O.N.⁴ tomonidan ijtimoiy siyosat samaradorligi orqali aholini uyjoy bilan ta'minlash yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shunday bo'lsada, byudjet xarajatlari doirasida aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan yaxlit ilmiy ishlarning kam ekanligi yoki mavjud emasligi tanlagan mavzuumiz doirasida tadqiqotlar olib borish dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Tashkent international university ilmiy tadqiqot rejasi va IL21101893-sonli "Kambag'allikni kamaytirish va haoli turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda aholini davlat byudjetidan uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Davlat byudjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlash xarajatlarini ta'minlashning nazariy asoslari tadqiq etish.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash – ijtimoiy siyosatning muhim omili sifatida tadqiq etish.

⁴Абдуллаева Ш. Е. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг назарий асосларини такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: М.Улуғбек номидаги ЎЗМУ, 2023. – 61 б.; Алиева Г.А. Ижтимоий инфратузилмалар ривожланишини бошқаришни такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида): и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: Қорақалпоқ давлат университети, 2020. – 56 б.; Асадуллина Н. Р., Нормуродов С. Н. Ўзбекистонда уй-жой қурилишининг ривожланиш тенденциялари //golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 26. – С. 11-23.; Баратов С. Н. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартиришда бюджет сиёсати йўналишларидан фойдаланиш устуворликлари: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ Самарқанд филиали, 2024. – 56 б.; Бахтиёрв Б.Б. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш йўналишлари: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: М.Улуғбек номидаги ЎЗМУ, 2020. – 55 б.; Давлетов И.Х. Уй-жойлар лойиҳа ечимларини комплекс баҳолашнинг илмий-услубий асослари: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТАҚУ, 2023. – 33 б.; Зокиров С. Ўзбекистонда урбанизацияни ривожлантиришнинг концептуал асослари: таҳлил ва таклиф //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 4. – С. 12-18.; Каримқулов Ж., Нурмухамедов Б. Аҳолини уй-жой билан таъминлашда юзага келаётган муаммолари ҳолатлар ва уларнинг ечими юзасидан таклифлар //Наука и технология в современном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 34-40.; Қиёмов Ю. Т. и др. Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш соҳасидаги қулайликларнинг аҳоли эҳтиёжига бўлган талаби //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 601-606.; Қурбоналиева Ҳ. И. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларининг социологик таҳлили //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 864-871.; Мирзамахмудова М.О. Аҳолининг ижтимоий жиҳатдан муҳтож қатламларини аниқлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: М.Улуғбек номидаги ЎЗМУ, 2022. – 58 б.; Мусаков И.Ю. Ядгаров А.А Иқтисодий ислохотлар натижасида аҳолини арзон уй-жой билан таъминлашнинг долзарб масалалари //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил; Тоймухамедов И., Эльбусинова У. Ўзбекистонда ёш оилаларга ипотека кредитларини бериш механизмини такомиллаштириш йўллари // I Ўзбекистон Республикаси ҳаракатлар стратегияси: макроиқтисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инновацион ривожланиш истиқболлари II халқаро илмий-амалий конференция. – 2019. 27-28 май.; Усманов М.А. Уй-жой қурилиши тармоғида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятни такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, 2022. – 61 б.; Хайтов О. Н., Очилов М., Тугилов Д., Мамлакатимизда уй-жой фондининг ривожланиш муаммолари ва истиқболлари //Journal of Discoveries in Applied and Natural Science. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 15-20.

Davlat tomonidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning ilg'or tajribalarini o'rganish.

Aholini uy-joy bilan ta'minlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tizimlashtirish.

Aholini uy-joy bilan ta'minlashning ko'p omilli o'lchov modeli omillari ta'siri tahlil qilish.

Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat byudjeti xarajatlari tahlilini amalga oshirish.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlarida mavjud muammolarini aniqlash va baholash.

Davlat byudjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning ustuvorliklarini joriy etishga qaratilgan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida byudjet siyosatining aholini uy-joy bilan ta'minlash yo'nalishlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda byudjet siyosatining aholini uy-joy bilan ta'minlash moliyalashtirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada umumlashtirish, so'rovnoma, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, linear regression, lasso linear regression, multinomial logistic regression, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

byudjet mablag'lari hisobidan ipoteka kreditini taqdim etishda oila a'zolarining sonini inobatga olish orqali uy-joy narxining bozor qiymati yuklamasi ta'sirini yumshatish taklif etilgan.

turar-joy narxlarini tartibga solishda monetar omillarni tahlil qilish asosida byudjetning ipoteka krediti siyosatidan foydalanish samaradorligini oshirish taklif etilgan.

davlat byudjetidan subsidiyalar ajratishda aholini jinslar kesimida tizimlashtirish orqali ularni uy-joy bilan ta'minlashning ijtimoiy elementi sifatini oshirish asoslangan.

eskrou hisobraqam vositasida davlat maqsadli jamg'armasi ekotizimini tashkil etish asosida aholining bo'sh turgan mablag'larini yangi uy-joy qurilishiga yo'naltirish bilan moliyaviy munosabatlarni ulushli shartnoma mezonida tartibga solish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

demografik jihatdan o'sish tendensiyalarining kengayib borishi uy-joyga egalik qilishga nisbatan yalpi talabning hajmini oshishiga olib kelishi va demografik jihatdan tebranishning keskinlashib borishi uy-joy bozoridagi tendensiyalarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ettishi asoslangan.

Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat byudjetining roli ijtimoiy siyosat va ipoteka siyosati jihatidan tizimlashtirilgan.

aholini uy-joy bilan ta'minlashda turar joylarning sifati, ularning sig'imkorligi, iqlim o'zgarishlariga salbiy ta'sirini oldini olish, ijara uchun ham

to'lovlarni joriy etish, shuningdek ijara to'lovlarini amalga oshiruvchilarning coliq imtiyozlaridan moliyaviy manfaatdorligini oshirish taklif etilgan.

ipoteka foiz stavkalarini pasaytirishda davlat mablag'laridan foydalanish va ushbu faoliyatga doir jamg'armaga aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish amaliyotini rivojlantirish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertasion tadqiqot olib borish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari va Xalqaro moliya institutlarining byudjet xarajatlarining ijtimoiy siyosatga doir rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilganligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavzuga tegishli qismlari atroflicha ko'rib chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda byudjet xarajatlarining aholini uy-joy bilan ta'minlash, bu borada turmush farovonligini oshirish va aholini turar-joy bilan ta'minlashni oshirishning metodologik asoslarini tadqiq etish va byudjet siyosatining aholini uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirishdagi rolini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekistonda byudjet xarajatlarining aholini uy-joy bilan ta'minlashni amalga oshirish orqali aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan tizimni isloh etishga bag'ishlangan ilmiy konsepsiya, qonunosti hujjatlarni ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarida «Moliya», «Davlat moliyasini boshqarish» va «Davlat byudjeti» singari fanlarning o'quv dasturini ishlab chiqish va uning amaliy bazasini mustahkamlashmumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda aholi aholini uy-joy bilan ta'minlashda byudjetdan moliyalashtirish ustuvorliklarini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

byudjet mablag'lari hisobidan ipoteka kreditini taqdim etishda oila a'zolarining sonini inobatga olish orqali uy-joy narxining bozor qiymati yuklamasi ta'sirini yumshatish taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi "2024 yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-son farmonining 3-bandi ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 28-fevraldagi 37-06/2379-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini uy-joy bilan ta'minlash 17 foizga oshdi.

turar-joy narxlarini tartibga solishda monetar omillarni tahlil qilish asosida byudjetning ipoteka krediti siyosatidan foydalanish samaradorligini oshirish taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi "2024 yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-son farmonining 4-bandi v-xatboshi ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil

28-fevraldagi 37-06/2379-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024-yilda byudjet hisobidan ipoteka kreditlarini ajratish 13 foizga oshdi.

davlat byudjetidan subsidiyalar ajratishda aholini jinslar kesimida tizimlashtirish orqali ularni uy-joy bilan ta'minlashning ijtimoiy elementi sifatini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi "2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-son farmonining 10-ilova 24-bandi ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 28-fevraldagi 37-06/2379-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024-yilda daromadga ega bo'lmagan aholini uy-joy bilan ta'minlash 30 foizga oshdi.

eskrou hisobraqam vositasida davlat maqsadli jamg'armasi ekotizimini tashkil etish asosida aholining bo'sh turgan mablag'larini yangi uy-joy qurilishiga yo'naltirish bilan moliyaviy munosabatlarni ulushli shartnoma mezonida tartibga solish taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi "2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-son farmonining 10-ilova 18-bandi ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 28-fevraldagi 37-06/2379-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024 yilda aholini uy-joy bilan ta'minlashda moliyaviy firibgarlik muammolari 9 foizga kamaydi.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobasiyada o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertasiya hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertasiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Davlat byudjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Davlat byudjetidan aholini uy-

joy bilan ta'minlash xarajatlarini ta'minlashning nazariy asoslari, aholini uy-joy bilan ta'minlash – ijtimoiy siyosatning muhim omili sifatida, davlat tomonidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning ilg'or tajribalari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Davlat byudjetidan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish yo'nalishlari haqida fikr yuritilganda quyidagi jihatlariga e'tibor berilishi ko'plab adabiyotlardan ma'lum hisoblanadi:

Birinchidan, aholining ishsiz qatamini vaqtinchalik moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Ikkinchidan, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan qatlamini tibbiy sug'urta bilan ta'minlash va uni moliyalashtirish.

Uchinchidan, boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar tayinlash va uni moliyalashtirish yo'nalishlari.

To'rtinchidan, onalik va bolalikni himoyalashga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirishni nazarda tutish.

Beshinchidan, aholining kam ta'minlangan qatlamini kambag'allikdan himoya qilish va ularni uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni byudjetdan moliyalashtirishni ko'zda tutish.

Fikrimizcha, davlat byudjetidan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirishda aholini uy-joy bilan ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, aholining turli ijtimoiy-iqtisodiy risklardan himoyalashga nisbatan himoya yostiqlalari shakllanishiga imkoniyat tug'iladi, deb o'ylaymiz. Shu boisdan, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat moliyaviy siyosatning turli elementlaridan foydalangan holda ijtimoiy siyosatni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini amalga oshiradi.


Ijtimoiy siyosatning turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan ko'plab ilmiy izlanishlarni ko'rish mumkin. Jumladan, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan doktorlik dissertasiyalari ham bajarilganligini kuzatish mumkin. Masalan, prof. D.Raxmonov o'zining dissertasion tadqiqotida ijtimoiy sohani byudjetdan moliyalashtirish masalalariga e'tibor qaratadi⁵. Ijtimoiy sohaning tarkibiy bo'g'inlari bo'lgan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini byudjet va byudjetdantashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari borasida ilmiy xulosalarini asoslab beradi. Shuningdek, mazkur sohalarni samarali moliyalashtirish orqali inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va xulosalarni ishlab chiqadi.

G.Kasimova o'zining doktorlik dissertasiyasida ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlashda g'aznachilik tizimi orqali byudjet mablag'laridan foydalanish omillariga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, g'aznachilik tizimining roli byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, byudjet mablag'larini hisobidan maktab ta'limi tizimini moliyalashtirishda autsorsing amaliyotini joriy etishning ustuvorliklarini asoslashga harakat qiladi⁶.

⁵ Рахмонов Д.А. Ўзбекистонда ижтимоий соҳани молиялаштиришнинг методологик асосларини такомиллаштириш: и.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, 2018. – 72 б.

⁶ Касимова Г.А. Ҳазначилик тизимида ижтимоий соҳанинг молиявий таъминоти услубиятини такомиллаштириш: и.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, 2024. – 77 б.

Bizningcha, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat byudjeti mablag'laridan foydanish nuqtai nazaridan bajarilgan ilmiy ishlarda ijtimoiy sohaning ta'lim va sog'liqni saqlash kabi bo'g'inlari faoliyatlari tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy ishlarda ilmiy xulosalar inson kapitalini rivojlantirish nuqtai nazaridan davlat byudjet mablag'laridan samarali foydalanish yo'nalishlari asoslashga harakat qilingan. Bu esa, ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishida soliqlar hisobidan jamg'arilgan mablalarning roli hal etuvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.



1-rasm. Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlatning roli

Manba: tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 apreldagi PF-70 sonli farmoniga ko'ra. Aholini uy-joy ilan ta'minlashga qaratilgan islohotlar keng rivojlana boshladi. Buni biz 1-rasmda keltirilgan mexanizmlar bilan ham aniqroq tasavvur etishimiz mumkin. Undan ko'rinib turibdiki, davlat byudjetining roli ikkita pozitsiyada muhim rol o'ringa ega bo'lmoqda. Birinchidan, ipoteka bozorini rivojlantirish uchun qurilish jarayonlarini rag'batlantirish va keng ko'lamli ipoteka kreditlarini rag'batlantirish. Ikkinchidan, ipoteka kreditining ijtimoiy xususiyatini rivojlantirishga qaratilgan holda kambag'allik

Biz tadqiqotlarimiz asosida Singapur tajribasi asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz:

Birinchidan, davlat tomonidan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishda moliya bozori elementlaridan foydalangan holda aholinign jamg'armalarini markaziy jamg'armaga jalb etishni rivojlantirish. Bunda ipoteka krediti hisobidan kelgan foiz to'lovlari asosida ipoteka qimmatli qog'ozlari uchun dividendlar to'lashni nazarda tutish. Mazkur amaliyotni joriy etish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga shart-sharoit vujudga keladi, deb o'ylaymiz.

Ikkinchidan, davlatning uy-joy qurish islohotlarida moliyaviy mustaqillik omillarini keng rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarni joriy etish. Bunda hududiy makroiqtisodiy yalpi talab va yalpi taklifdan kelib chiqib aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan strategiyani ishlab chiqishni nazarda tutish.

Uchinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamining daromadlariga nisbatan ipoteka krediti to'lovlarning ulushi katta bo'lib ketishini oldini olish maqsadida uy-joylar bo'yicha ipoteka kreditini meros oluvchiga o'tkazish orqali muddatini uzoq yillarga bo'lishini belgilash kabilar shular jumlasiga kiradi, deb o'ylaymiz.

AQSh tajribasi asosida aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan tendensiyalarni tadqiq etish orqali quyidagi ilmiy xulosa va takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:

Birinchidan, kam daromadli aholiga nafaqat uy-joylarga egalik qilishlari uchun subsidiya berish tizimini, balki ularning vaqtinchalik ijara to'lovlarini ham to'lashga qaratilgan tizimni joriy etish.

Ikkinchidan, ijara to'lovlarini davlat byudjetidan qoplab berilishida yoki oila mablag'lari hisobidan to'langanda uning hajmi doirasida daromad solig'idan imtiyoz berishni nazarda tutish. Bunda ijaraga oluvchining soliq imtiyozidan moliyaviy manfaatdorligini oshirish orqali ijara beruvchilarni samarali soliqqa tortish tizimini joriy etish.

Uchinchidan, kam daromadli oilalarga subsidiya asosida uy-joylar sotib olishda oila a'zolari nisbatan uyning sig'imkorligini inobatga olish orqali subsidiya hajmini tabaqalashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, Finlyandiya tajribasi asosida aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan islohotlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan quyidagi elementlarni inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi, deb o'ylaymiz:

Birinchidan, har bir insonning turar-joyga egalik qilishga bo'lgan uzviy huquqini ro'yobga chiqarishda barchaga uy-joy tamoyilini hayotga tatbiq etish.

Ikkinchidan, O'zbekistonda hududiy nuqtai nazardan geografik-demografik jihatdan xaritasini shakllantirish asosida aholini uy-joy bilan ta'minlashda hududlarning mustaqil ravishda strategiyalarini ishlab chiqishga shart-sharoit yaratib berish.

Umumiy xulosa qilib aytganda, aholini uy-joy bilan ta'minlashda turar joylarning sifati, ularning sig'imkorligi, iqlim o'zgarishlariga salbiy a'sirini oldini olish, ijara uchun ham to'lovlarni joriy etish, shuningdek ijara to'lovlarini amalga oshiruvchilarning coliq imtiyozlaridan moliyaviy manfaatdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dissertasiya ishining ikkinchi bobi “**Davlat byudjetidan aholini uy-joy bilan ta’minlashning rivojlanish tendensiyalari**” deb nomlangan bo‘lib, unda dissertasiyaning tahliliy qismlari bayon etilgan. Mazkur tahlillarda Aholini uy-joy bilan ta’minlashga ta’sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tizimlashtirish, aholini uy-joy bilan ta’minlashning ko‘p omilli o‘lchov modeli omillari ta’siri tahlili, aholini uy-joy bilan ta’minlashda davlat byudjeti xarajatlari tahlili va unga ta’sir etuvchi omillarni baholash amalga oshirilgan.

Aholi tomonidan uy-joylarga egalik qilishda bir qator omillarni inobatga olish dolzarblik kasb etadi, deb o‘ylaymiz. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Aholining xarajatlari tarkibida uy-joy sotib olish yoki ipoteka kreditlari uchun to‘lovlarning ulushi katta bo‘lib ketmasligini oldini olish.

Oila a’zolarining har bir a’zosi uchun zaruriy yashash maydonining minimal talabini bajarilishi.

Ijtimoiy infratuzilmagacha bo‘lgan masofaning uzoq bo‘lmasligiga erishish.

Tadqiqotimiz davomida 2024 yil avgust-sentyabr oylarida https://docs.google.com/forms/d/1wChipUIMGfTtvBh866j-M_110tk5fQhnPVzwaBnbW6U/edit linkida joylashtirilgan so‘rovnomanini o‘zbekistonlik respondentlar e’tiboriga havola qilish orqali 624 ta kishi o‘rtasida o‘tkazdik.

Biz mazkur so‘rovnomaning to‘plangan ma’lumotlari asosida aholini uy-joy bilan ta’minlashning ijtimoiy va iqtisodiy omillarning ta’sir etish darajasini aniqlash va baholashga e’tibor qaratamiz.

1-jadval ma’lumotlarida keltirilgan modellarda uy-joyi tanlash va uning sifatidan qoniqish ko‘rsatkichlarini tahlil qilamiz. Bnja quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

Birinchidan, ijtimoiy omillarning ta’sirida bo‘lgani kabi iqtisodiy omillarda ham uy tanlashda “boshqa variant bo‘lmaganligi” omili va uyning sifatidan qoniqishda “yaxshi” deb yondashish asosiy ta’irga ega bo‘layotganligini kuzatish mumkin.

1-jadval

Uy-joy tanlash va undan qoniqish bo‘yicha savollarga berilgan javoblarga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar

Ko‘rsatkich nomi	Coeff.	P>t	Coeff.	P>t
Statistik ahamiyatlilik	F(28, 596)=3.96 Prob > F=0.0000		F(28, 596)=2.78 Prob > F=0.0000	
	Narxima’qul		Juda yaxshi	
Sizning yashayotgan xonadoningiz ipoteka krediti asosida sotib olinganmi?	-.779	0.014	.036	0.897
Bankda omonatingiz mavjudmi?	.004	0.991	-.114	0.754
Daromadingizning qanchasi ipoteka krediti uchun ketadi?	.278	0.003	.131	0.098
Sizning daromad manbaingiz qanday?	.078	0.752	.311	0.194
Davlat tomonidan joriy etilgan qaysi uy-joy dasturidan foydalangansiz?	-.640	0.000	.180	0.241
Sizningcha xonadon sotib olish uchun qaysi dastur qulay?	.072	0.637	-.113	0.382
Siz davlat dasturi asosida uyingiz uchun quyidagilar qaysi birini	-.054	0.629	.072	0.499

olgansiz?				
_cons	1.51	0.150	-1.83	0.072
	Ishjoyimgayaqin		O'rtacha	
Sizningyashayotganxonadoningizipotekakreditiasosidasotibolinganmi?	.528	0.107	-.686	0.008
Bankda omonatingiz mavjudmi?	-.079	0.837	.486	0.171
Daromadingizning qanchasi ipoteka krediti uchun ketadi?	.134	0.138	-.081	0.274
Sizning daromad manbaingiz qanday?	-.147	0.520	-.104	0.645
Davlat tomonidan joriy etilgan qaysi uy-joy dasturidan foydalangansiz?	-.359	0.039	.164	0.234
Sizningcha xonadon sotib olish uchun qaysi dastur qulay?	.101	0.532	.084	0.500
Siz davlat dasturi asosida uyingiz uchun quyidagilarning qaysi birini olgansiz?	-.240	0.046	.142	0.100
_cons	.0003	1.000	-.747	0.405
	Qulayinfratuzilma		Kam	
Sizningyashayotganxonadoningizipotekakreditiasosidasotibolinganmi?	-.273	0.303	-1.53	0.027
Bankda omonatingiz mavjudmi?	.791	0.060	.530	0.467
Daromadingizning qanchasi ipoteka krediti uchun ketadi?	.062	0.449	-.201	0.218
Sizning daromad manbaingiz qanday?	-.270	0.321	.609	0.094
Davlat tomonidan joriy etilgan qaysi uy-joy dasturidan foydalangansiz?	-.139	0.364	-.153	0.497
Sizningcha xonadon sotib olish uchun qaysi dastur qulay?	-.142	0.291	-.200	0.526
Siz davlat dasturi asosida uyingiz uchun quyidagilar qaysi birini olgansiz?	-.271	0.004	.453	0.041
_cons	.546	0.598	-2.10	0.277
	Yaqinqarindoshsababli		Yo'q	
Sizningyashayotganxonadoningizipotekakreditiasosidasotibolinganmi?	.846	0.059	.472	0.227
Bankda omonatingiz mavjudmi?	-.015	0.976	-.367	0.399
Daromadingizning qanchasi ipoteka krediti uchun ketadi?	.400	0.000	-.015	0.868
Sizning daromad manbaingiz qanday?	-.046	0.852	.549	0.026
Davlat tomonidan joriy etilgan qaysi uy-joy dasturidan foydalangansiz?	-.039	0.869	.351	0.071
Sizningcha xonadon sotib olish uchun qaysi dastur qulay?	-.083	0.658	.103	0.575
Siz davlat dasturi asosida uyingiz uchun quyidagilar qaysi birini olgansiz?	-.058	0.686	.167	0.227
cons	-3.01	0.020	-4.26	0.000
	Boshqatanlovbo'lmaganligi		Yaxshi	
	(base outcome)		(base outcome)	

Ikkinchidan, uy-joyning narxi ma'qul bo'lishi uyni ipoteka kreditisiz sotib olishda sezilarsiz ta'sirga ega bo'lsa, uy-joy krediti uchun daromadning yarmi yoki undan ko'p qismi sarf etilishiga olib kelmoqda ekan. Shuningdek, uy-joyni sotib olishda narxning ma'qulligi subsdiyadan foydalanish yoki davlat dasturlaridan umuman foydalanmaslik holatlari bilan bog'langanligini ta'minalsh lozim.

Shu bilan birga, uying sifatidan “juda yaxshi” mazmunida qoniqish hosil qilganlar daromadining yarmini sarflashi sezilarsiz statistik ahamiyatga ega bo‘layotganlinini kuzatish mumkin.

Uchinchidan, uying “ish joyiga yaqin” kategoriyasi asosida uyni tanlashshda davlat tomonidan subsidiya ajratish dasturidan foydalanish yoki dasturlardan umuman foydalanmaslik sezilarsiz statistik ahamiyatga ega bo‘layotganligini kuzatamiz. Shuningdek, mos ravishda aholi ko‘proq kam foizli ipoteka dasturlaridan ham foydalanishni afzal ko‘rayotganligini qayd etishimiz lozim.

Uying sifatidan uyni naqd pul evaziga sotib olish va uy-joy hovli shaklida qurilgan davlat dasturlarni qulay deb baholaydiganlar uying sifatini “o‘rtacha” qoniqish bilan qayd etganlarini qayd etish mumkin.

To‘rtinchidan, “qulay infratuzilma” asosida uyni tanlash nafaqat naqd pul evaziga uyni sotib olish, balki bankda omonatga ham ega bo‘lish holatlari bilan bog‘langanlinini ko‘rish mumkin. Shuningdek, mazkur omil davlat dasturlardan umuman foydalanmaslik holatlariga ta‘siri sezilarsiz statistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Uy-joyning sifatidan qoniqishni “kam” deb baholaydiganlar kamroq holatlarda ipoteka kreditidan foydalanishi ko‘rish mumkin. Shuningdek, o‘z biznesiga ega bo‘lish yoki davlat tashkilotlarida faoliyat olib borish ham uy-joy sifatidan kamroq qoniqish holatlari vujudga kelishini ko‘rsatmoqda. Davlat dasturi asosida subsidiyadan foydalanganlar ham uying sifatidan qoniqishi “kam” ekanligini ta’kidlashgan.

Beshinchidan, uy-joyni ipoteka kredit asosida sotib olish va uni to‘lashi uchun daromadining yarmi yoki undan ko‘p qismi ketadiganlar uyni tanlashlarida “yaqin qarindoshlari” sabab bo‘lishi ko‘rsatishgan.

Uy-joyni sifatidan qoniqmaslik holatlari barqaror daromad manbasiga ega bo‘lish va uy-joyni davlatning hovli shaklida uy-joy qurish dasturlaridan foydalanganlar tomonidan vujudga kelayotganligini ko‘rish mumkin.

Uy-joyni tanlash va uning sifatidan qoniqish tendensiyalariga ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy omillar nuqtai nazaridan quyidagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirishga harakat qildik:

Aholi uy-joyni tanlashda kam tanlovga ega bo‘sada, uning sifatidan qoniqish darajasi yaxshi ekanligini qayd etishmoqda.

Uy-joyni tanlashda ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati ipoteka kreditisiz sotib olish holatlarida hal qiluvchi bo‘lsa, yaqin qarindoshlar omili davlat dasturlari yoki ipoteka dasturlaridan foydalanish jarayonlarida yuz berayotganligini xulosa qilish mumkin.

Uy joy sifatidan “juda yaxshi” qoniqish uy-joy dasturlaridan biridan foydalanishda yuz bersa, daromadning barqaror bo‘lishi kabi jihatlar uying sifatidan qoniqmaslik holatlariga olib kelayotganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy omillar uy-joy dasturlarining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir etayotganlini ko‘rish mumkin. Bunda oilalarning o‘z yaqin qarindoshlaridan uzoq aholi yashash punktlarini tanlmayotganliklarini, uy-joy sifatidan qoniqishlari kamida “yaxshi” ekanligini ta’kidlash lozim.

Biz tadqiqotlarimizni amalga oshirishda aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida ta'sir qilishi mumkin bo'lgan monetar omillar sifatida – aholining daromadlarini shakllantiruvchi elementlar va nomonetar omillar sifatida – oilaning hajmi, qurilish jarayonlari, farzandlar soni va oiladagi xo'jalik iste'mol mahsulotlaridan foydalanish tendensiyalari kabi jihatlarni qamrab olishga e'tibor qaratdik.

2-jadval

Uy-joy fondiga ta'sir etuvchi monetar va nomonetar omillar tasviriy statistikasi

Ko'rsatkich nomi	Belgi	Mean	Std. err.	[95% conf. interval]
Bir xonali kvartiralar soni	Y	500747.2	35371.81	424331.1 577163.4
Ikki xonali kvartiralar soni	Y	2016068	39243.97	1931287 2100849
To'rt xonali kvartiralar soni	Y	1784256	51965.56	1671991 1896520
Monetar ko'rsatkichlar				
Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	X1	53843.68	12817.78	26152.55 81534.8
Aholi umumiy daromadlari o'sishi, foizda	X2	121.7714	1.836218	117.8045 125.7383
Aholi jonboshigadaromad, ming so'm	X3	8663.614	1523.934	5371.355 11955.87
Mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, foizda	X4	2.328571	.1215416	2.065997 2.591146
Transfertdan olingan daromad, foizda	X5	21.79286	1.117074	19.37957 24.20615
Nomonetar ko'rsatkichlar				
Oilao'rtachakattaligi, kishi	X6	5.071429	.0220603	5.02377 5.119087
3 bolali oilalar ulushi, foizda	X7	16.46429	.2300519	15.96729 16.96128
Bir kishilik oila	X8	2.7	.1037749	2.475808 2.924192
Uch kishilik oila	X9	10.51429	.2369349	10.00242 11.02615
Besh kishilik oila	X10	61.67857	.5035237	60.59077 62.76637
100 oilaga bir engil avtomobil	X11	41.57143	2.997644	35.09541 48.04745
100 oilaga bir kondisioner	X12	33.85714	2.281934	28.92732 38.78696
100 oilaga bir changyutgich	X13	54.28571	2.68375	48.48783 60.0836

Aholini uy-joy bilan ta'minlashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan omilarni tizimlashtirishga va ulardan foydalangan holda ko'p omilli o'lchov modelini tuzishga harakat qildik. Unda 2010-2023 yillar kesimidagi makroiqtisodiy xususiyat kasb etuvchi quyidagi ko'rsatkichlarni tanlab oddik.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tanlab olingan ko'rsatkichlar ayrimlari monetar ahamiyatga ega bo'lib ular aholi daromadlarini tarkibiy bo'g'ini sifatida aks etishini qayd etish lozim. Boshqa bir ko'rsatkichlar oila a'zolari soni va ular egalik qiladigan uy xo'jaligi mahsulotlarini keltirish mumkin.

Biz mazkur omillarning ko'p qavatli uylardagi kvartiralar sonining o'zgarish tendensiyasiga ta'sirini aniqlash va shakllantirilgan modelni baholashga e'tibor qaratamiz.

Uch xonali kvartiralar sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash bo'yicha tadqiqotlarimizni davom ettiramiz. Bunda oldingi modelimizda multikollinearlik natijasida ajratib olingan ko'rsatkichlar bilan navbatdagi modelimizni tuzishga e'tibor qaratamiz. Biz monetar va nomonetar omillarni tizimlashtirgan holda tuzgan modelimizda oila a'zolarining soni uch va besh kishi bo'lishini ikkita alohida model asosida shakllantirishga harakat qildik (3 va 4-jadvallarga qarang).

3-jadval

Uch xonali kvartiralar sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha model

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	14
				F(5, 8)	=	11.30
Model	4.3051e+11	5	8.6101e+10	Prob > F	=	0.0018
Residual	6.0971e+10	8	7.6213e+09	R-squared	=	0.8759
				Adj R-squared	=	0.7984
Total	4.9148e+11	13	3.7806e+10	Root MSE	=	87300

Ko'rsatkichlar	Coef.	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf. Interval]
Aholi umumiy daromadlari o'sishi, foizda	7278.47	3747.034	1.94	0.088	-1362.206 15919.14
Mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, foizda	366391.6	59641.56	6.14	0.000	228857.9 503925.3
Transfertdan olingan daromad, foizda	28078.15	10624.35	2.64	0.030	3578.354 52577.95
3 bolali oilalar ulushi, foizda	-202886.9	49882.17	-4.07	0.004	-317915.4 -87858.4
Uch kishilik oila	-105120.1	34858.62	-3.02	0.017	-185504.2 -24735.9
_cons	3878524	970750.7	4.00	0.004	1639969 6117079

Uch xonali kvartiralar sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirganimizda aholi umumiy daromadlari o'sishi, mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, transfertdan olingan daromad va 3 bolali oilalar ulushi va oila a'zolarining uch yoki besh kishiidan iborat bo'lishi kabi jihatlar statistik va sezilarli ta'sirga ega ekanligini aniqladik. Ushbu ko'rsatkichlarning omilli ta'sirini baholash uchun ko'p omilli modelni tuzdik.

Dastlab oila a'zolari soni uch kishi bo'lgandagi holatni baholab chiqamiz. 3-jadvalda keltirilgan modelni ko'rib chiqamiz. Model statistik ahamiyat ($\text{Prob} > F = 0.0018$)ga ega bo'lib, tuzilgan model uch xonali kvartiralar sonini o'zgarishining 87,59 (R-squared) foizini tushuntirib bermoqda.

Model uchun tanlab olingan barcha omil ko'rsatkichlari statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirga ega bo'layotganligini qayd etish lozim. Aholi daromadlarining o'sishi 10 foizlik ehtimol bilan ta'sirga ega bo'layotgan bo'lsa, qolgan monetar ko'rsatkichlar yuqori statistik ta'sirga ega ekanligini qayd etish lozim. Shuningdek,

aholining mol-mulkdan olayotgan daromadlari juda kuchli ta'sirga ega ekanligini ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, daromadning ushbu turi oilalarning uch xonali kvartiralar sotib olishga bo'lgan moyilligini oshirmoqda.

Qayd etish lozim, farzandlar soni va oila a'zolarining 3tadan ko'p bo'lishi uch xonali kvartiralar sonining oshishiga teskari proporsional ta'sir etayotganligini ko'rsatmoqda. Boshqacha aytganda, uch xonali kvartiralar sonining ortishiga oila a'zolari soni teskari ta'sir etmoqda.

4-jadval

Uch xonali kvartiralar sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha model

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	14
				F(5, 8)	=	7.26
Model	4.0275e+11	5	8.0550e+10	Prob > F	=	0.0076
Residual	8.8727e+10	8	1.1091e+10	R-squared	=	0.8195
				Adj R-squared	=	0.7066
Total	4.9148e+11	13	3.7806e+10	Root MSE	=	1.1e+05

Ko'rsatkichlar	Coef.	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf. Interval]
Aholi umumiy daromadlari o'sishi, foizda	8231.654	4637.283	1.78	0.114	-2461.939 18925.25
Mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi, foizda	374952.6	71743.75	5.23	0.001	209511.2 540394
Transfertdan olingan daromad, foizda	21967.79	12254.23	1.79	0.111	-6290.517 50226.1
5 bolali oilalar ulushi, foizda	-182056.9	59101.42	-3.08	0.015	-318345 -45768.7
Besh kishilik oila	37566.01	19408.15	1.94	0.089	-7189.263 82321.28
_cons	110449	1372779	0.08	0.938	-3055186 3276084

Fikrimizcha, uch xonali kvartiralar sonining oshishida monetar omillar statistik ahamiyatga ega bo'lgan holda ta'sirga ega bo'lmoqda. Nomonetar omillar esa teskari ta'sirga ega hisoblanmoqda. Bu esa, uch xonali kvartiralarning qurilishi va ularni ijtimoiy dasturlar asosida aholiga adolatli taqsimlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlardan biri hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

4-jadvalda keltirilgan modelda oilalar sonining besh kishi bo'lgandagi vaziyat tahlil qilib chiqilgan. Ushbu holatga tegishli bo'lgan model statistik ahamiyat ($\text{Prob}>F=0.0076$)ga ega bo'lib, tuzilgan model uch xonali kvartiralar sonini o'zgarishining 81,95 (R-squared) foizini tushuntirib bermoqda.

Oila a'zolarining soni besh kishi bo'lganda daromadlarning o'sishi va transfertlardan olinadigan daromadlar statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirga ega bo'lmayotganligini kuzatish mumkin. Qolgan omillar esa statistik ahamiyatli ta'sirga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Bizningcha, uch xonali kvartiralar sonining o'zgarishida monetar va nomonetar omillar birgalikda ta'sir etayotganligini qayd etish lozim. Boshqacha

aytganda, bir toifadagi omillar bir xil xususiyat bilan ta'sirga ega emas. Oila a'zolari besh kishi bo'lganda mol-mulkdan olingan daromad juda kuchli ta'sirga ega bo'lmoqda.


